



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **10,9 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **o'zgarishsiz qolgan**.
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **11,2 mingtaga oshgan**.

2018 yilning yanvar-mart oyida Respublikada 15,5 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ga kamaygan hamda ularning soni 4,3 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 10,9 mingga (3,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 296,4 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,2 %), Toshkent viloyatida (9,5%), Farg'ona (9,0 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	311,7	100,0	296,4	100,0
Q. Respublikasi	15,0	4,8	14,4	4,9
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	27,0	8,7	25,4	8,6
Buxoro	17,2	5,5	16,3	5,5
Jizzax	13,6	4,3	12,9	4,4
Navoiy	19,9	6,4	19,2	6,5
Namangan	10,2	3,3	9,9	3,3
Qashqadaryo	21,4	6,9	20,3	6,8
Samarqand	23,3	7,5	21,9	7,4
Surxondaryo	15,4	4,9	14,6	4,9
Sirdaryo	10,4	3,3	9,7	3,3
Toshkent	32,0	10,3	28,2	9,5
Farg'ona	27,1	8,7	26,7	9,0
Xorazm	14,6	4,7	14,0	4,7
Toshkent sh.	64,6	20,7	62,9	21,2


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan/

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,7 % savdoda, 17,0 % sanoatda, 8,9 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 15495 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (3221 ta), Toshkent (1418 ta), Farg'ona (1293 ta) va Andijon viloyatlarida (1178 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (396 ta), Xorazm (519 ta) hamda Navoiy (621 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (3070 ta), sanoatda (3018 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (1728 ta), qurilishda (1668 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (947) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (362 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (369 ta) va tashish va saqlashda (563 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	14049	15495
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2101	1728
Sanoat	3684	3018
Qurilish	1182	1668
Savdo	2968	3070
Tashish va saqlash	639	563
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1202	947
Axborot va aloqa	312	362
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	210	369
Boshqa turlari	1751	3770

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,1 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida qurilishda (+0,6 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), sanoatda (+0,3 f.p.), tashish va saqlashda (+0,1 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+-)
Savdo	21,7	22,8	-1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	3,0	-0,9
Axborot va aloqa	2,2	2,4	-0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	5,9	0,1
Tashish va saqlash	4,2	4,1	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,5	7,2	0,3
Sanoat	17,0	16,7	0,3
Qurilish	8,9	8,3	0,6
Boshqa turlari	30,4	29,6	0,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 240,8 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 70,8 mingta, oilaviy korxonalar – 12,7 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 150,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,6 mingtani va boshqalar 6,5 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5815 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 683 taga yoki 13,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3243 tasi qo'shma korxonalar, 2572 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 3785 ta (65,1 %), Toshkent viloyati 631 ta (10,9 %) va Samarqand viloyatlari 305 ta (5,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 52 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 55 ta (0,9 %), Navoiy viloyati 65 ta (1,1 %) va Surxondaryo viloyati 71 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2511 ta (43,2 %), savdoda 1142 ta (19,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1011 ta (17,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 82 ta (1,4 %), axborot va aloqada 141 ta (2,4 %), tashish va saqlashda 171 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 187 ta (3,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 227 ta (3,9 %) va qurilishda 343 ta (5,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 387 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 208 taga ko'paygan yoki 2,2 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 76 ta, Turkiya Respublikasi – 59 ta, Qozog'iston Respublikasi – 55 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-54 ta va Koreya Respublikasi– 35 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-mart holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 134 ta, savdoda 108 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 33 ta, qurilishda 32 ta va boshqa faoliyat turlarida 80 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 238,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 7,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 53,9 mingtasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 22,8 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 21,1 mingtasi (8,9 %) Farq'ona hamda 20,8 mingtasi (8,7 foizi) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 238,5 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 63,8 mingtasi (26,8 %) – savdoda, 49,7 mingtasi (20,8 %) - sanoatda, 29,3 mingtasi (11,0 %) - qurilishda, 21,7 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 17,7 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,3 mingtasi (5,2 %) - tashish va saqlashda, 6,3 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 4,7 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 36,0 mingtasi (15,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 13,2 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,1 % ga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (3055 ta), Toshkent (1307 ta), Farg'ona (1105 ta) va Samarqand viloyatlarida (1088 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (362 ta), Xorazm (450 ta) hamda Navoiy (514 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (3066 ta), sanoatda (3009 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (1720 ta) va qurilishda (1666 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (362 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (364 ta) hamda tashish va saqlashda (563 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 13275 tani tashkil etib, ulardan 12695 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **28,1** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,6 % yoki 4775 tasi sanoat, 20,8 % yoki 2642 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,4 % yoki 1949 tasi savdo, 11,8 % yoki 1496 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 182 tasi qurilish, 1,3 % yoki 159 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 143 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 121 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,7 % yoki 1228 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **S.Begmatov**
 (0371) 230-80-91,90



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan